

PARALLEL KORPUS ASOSIDA HARAKAT FE'LLARI SINONIMLARINING SEMANTIK KOMPONENTLARI VA ULARNING TARJIMADAGI QAYTA TAQSIMLANISHI TAHLILI

Gulhida Hasanova

O'z DJTU tayanch doktoranti

+998909284198

gulhida0898@gmail.com

orcid: 0009-0000-6972-6772

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22785945>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 15-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 16-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi harakat fe'llari sinonimlarining semantik komponentlari parallel korpus materiallari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari harakat fe'llarida usul, yo'nalish, trayektoriya, aspekt va argument struktura komponentlarining tarjima jarayonida qanday darajada saqlanishi yoki qayta taqsimlanishini ko'rsatadi. Tahlil natijalari tillararo strukturaviy farqlar harakat fe'llari sinonimiyasida semantik komponentlarning ierarxik barqarorligiga ta'sir qilishini aniqlaydi.

Kalit so'zlar:

harakat fe'llari, sinonimiya, parallel korpus, tarjima asimmetriyasi, leksik semantika, aspekt, yo'nalish, trayektoriya, argument struktura.

Kirish.

Harakat fe'llari til tizimida voqea strukturasini ifodalovchi muhim leksik birliklar hisoblanadi. Bunday fe'llar harakat faktini ifodalash bilan birga, uning bajarilish usuli, yo'nalishi, trayektoriyasi, davomiyligi va natijasi kabi bir qator semantik komponentlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli harakat fe'llari sinonimiyasini o'rganish tilning leksik-semantik tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Zamonaviy tilshunoslikda harakat fe'llari ko'pincha voqea strukturasining semantik komponentlari orqali tavsiflanadi. Bu komponentlar harakatning qanday sodir bo'lishi, qaysi yo'nalishda amalga oshishi hamda qanday natijaga olib kelishini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikda harakat fe'llari semantikasi muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Korpus lingvistikasi metodlarining rivojlanishi sinonimlarni empirik asosda o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Parallel korpuslar yordamida turli tillarda bir xil voqea qanday semantik vositalar orqali ifodalanishini aniqlash mumkin. Bu esa tarjima jarayonida semantik komponentlarning qanday saqlanishi yoki qayta taqsimlanishini aniqlashga imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi. Harakat fe'llari semantikasi ko'plab tadqiqotlarda manner, path, result va aspect kabi komponentlar asosida o'rganilgan. Ayniqsa kognitiv semantika va tipologik tadqiqotlarda harakat fe'llari voqea strukturasining muhim elementlari sifatida ko'rib chiqiladi. Ingliz tilida ko'plab harakat fe'llari harakatning bajarilish usulini ifodalovchi manner fe'llar sifatida leksiklashgan bo'lsa, boshqa tillarda natijaviy yoki

yo'nalish komponentlari ustun bo'lishi mumkin. Shu sababli parallel matnlarda harakat fe'llari tarjimasida semantik komponentlarning qayta taqsimlanishi kuzatiladi. Shunga qaramay, o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida harakat fe'llari sinonimlarining semantik komponentlarini parallel korpus asosida tizimli o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas. Mazkur maqola ushbu masalani korpus materiallari asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Material va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi parallel matnlar asosida tuzilgan Paratranslator paralel korpusdan¹ foydalanildi. Korpus tarkibida badiiy va publitsistik matnlar segmentlari mavjud bo'lib, ulardan harakat fe'llari qatnashgan kontekstlar ajratib olindi. Tahlil jarayonida semantik komponentlardan harakatning bajarilish usuli yo'nalish va trayektoriya, aspektual xususiyatlar va argument struktura

kabilar alohida ko'rib chiqildi. Har bir komponentning parallel matnlarda qanday ifodalanishi aniqlanib, ularning saqlanishi, neytrallashuvi yoki sintaktik vositalar orqali qayta ifodalanishi statistik jihatdan hisoblandi

Natijalar va ularning tahlili. Parallel korpus materiallari asosida o'tkazilgan tahlil harakat fe'llari sinonimiyasida semantik komponentlarning tarjimada tizimli ravishda qayta taqsimlanishini ko'rsatdi.

450 ta fe'l tokeni tahlili natijasida harakatning bajarilish usuli komponentining uch xil taqsimlanish modeli aniqlangan. 40% hollarda usul fe'l tarkibida saqlangan. Masalan, ingliz tilidagi **hurled** fe'li o'zbek tilida **uloqtirdi** shaklida berilganda harakatning intensiv usuli saqlanadi. 35% hollarda usul komponenti neytrallashib, dominant natijaviy fe'l tarkibiga singib ketadi. Masalan, ingliz tilidagi **slice, chop, hack** kabi fe'llar ko'pincha o'zbek tilida umumiy **kesmoq** fe'li bilan ifodalanadi. 25% hollarda esa usul fe'l tarkibidan ajratilib, sintaktik kengaytma orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi **cautiously emerging** birikmasi o'zbek tilida **pisib chiqib kelish** tarzida berilishi mumkin.

Yo'nalish komponenti bo'yicha tahlil natijalari ham muhim tendensiyaning ko'rsatdi. 350 dan ortiq token asosida yo'nalishning 45% hollarda fe'l tarkibida saqlanishi, 30% hollarda boshqa grammatik vositalarga ko'chirilishi, 20% hollarda esa neytrallashuvi aniqlangan.

Masalan, ingliz tilidagi **enter** fe'li o'zbek tilida **kirmoq** tarzida bevosita saqlansa, **thrust into** konstruksiyasi o'zbek tilida **cho'ntagiga suqdi** shaklida kelishik va fe'l birikmasi orqali ifodalanadi.

Aspektual xususiyatlar tahlili teliklik komponenti tarjimada eng barqaror semantik elementlardan biri ekanini ko'rsatdi. Masalan, ingliz tilidagi **slice the throat** birikmasi o'zbek tilida **tomoqni kesish** tarzida berilganda harakatning natijaviy yakunlanganligi saqlanadi.

Takroriylik komponenti esa tarjimada eng sezgir elementlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, o'zbek tilidagi **g'ijillashmoq** fe'lining takroriy konflikt semasi ingliz tilida ko'pincha **never speak** kabi natijaviy ibora orqali ifodalanadi.

Argument struktura tahlili esa 420 dan ortiq token asosida quyidagi tendensiyalarni ko'rsatdi. 55% hollarda asosiy argument struktura saqlangan, 25% hollarda argument kengayishi, 15% hollarda esa argument qisqarishi kuzatilgan. Masalan, ingliz tilidagi **cut his finger** birikmasi o'zbek tilida **barmog'ini pichoq bilan kesdi** shaklida berilganda vosita komponenti sintaktik jihatdan ochiq ifodalanadi.

Xulosa. Parallel korpus materiallari asosida olib borilgan tahlil harakat fe'llari sinonimiyasida semantik komponentlarning ierarxik barqarorligi mavjud ekanini ko'rsatdi. Natija va teliklik komponentlari tarjimada eng barqaror elementlar sifatida namoyon bo'lsa, usul va takroriylik komponentlari nisbatan periferik bo'lib, ko'pincha neytrallashuvga uchraydi. Yo'nalish komponenti esa tillararo strukturaviy farqlar sababli ko'pincha sintaktik vositalar orqali qayta ifodalanadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilida harakatning bajarilish usuli ko'proq leksik darajada ifodalanishini, o'zbek tilida esa natijaviy komponent markaziy rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu sababli tarjima jarayonida semantik komponentlar ko'pincha leksik darajadan sintaktik darajaga ko'chadi. Mazkur natijalar harakat fe'llari sinonimiyasining ichki semantik tuzilishini aniqlash

¹ <https://paratranslator.uz/en/>

hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan strukturaviy asimmetriyani tushuntirishda muhim nazariy asos yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alanazi Z. Corpus-based analysis of near-synonymous verbs // Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education. – 2022. – Vol.7(15). – P.1–25.
2. Bonkrathok R. A corpus-based study of the synonyms: Convey and express. – Thammasat University, 2018. – P.1–34.
3. Dowty D.R. Word Meaning and Montague Grammar: The Semantics of Verbs and Times in Generative Semantics and in Montague's PTQ. – Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1979.
4. G'ulomov A. Fe'l. Hozirgi o'zbek tili kursidan materiallar. – Toshkent: Fan, 1954. – B.16–56.
5. Muhamedova S.X. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2007. – 325 b.
6. Rothstein S. Structuring Events: A Study in the Semantics of Lexical Aspect. – Oxford: Blackwell Publishing, 2004.
7. Smith C.S. The Parameter of Aspect. – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1991.
8. Sodiqova M.S. Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l stilistikasi (semantik aspektda): Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent, 1991. – 25 b.
9. Vendler Z. Verbs and times // The Philosophical Review. – 1957. – Vol.66(2). – P.143–160.
10. Verkuyl H.J. A Theory of Aspectuality: The Interaction between Temporal and Atemporal Structure. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993.
11. <https://paratranslator.uz/en/>

Аннотация.

В статье на основе материалов параллельного корпуса проводится сравнительный анализ семантических компонентов глаголов движения в узбекском и английском языках. Исследование показывает, каким образом компоненты способа действия, направления, траектории, аспекта и аргументной структуры сохраняются или перераспределяются в процессе перевода. Полученные результаты демонстрируют влияние типологических различий языков на устойчивость семантических компонентов глаголов движения.

Ключевые слова:

глаголы движения, синонимия, параллельный корпус, переводческая асимметрия, лексическая семантика, аспект, направление, аргументная структура.

Abstract.

This article presents a corpus-based comparative analysis of semantic components of motion verb synonyms in Uzbek and English. The study examines how manner, direction, trajectory, aspectual features and argument structure are preserved or redistributed in translation. The findings reveal that typological differences between the two languages influence the hierarchical stability of semantic components within motion verb synonymy.

Keywords:

motion verbs, synonymy, parallel corpus, translation asymmetry, lexical semantics, aspect, direction, argument structure.